




SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2021- yil yanvar-dekabr oyi
uchun dastlabki ma'lumot)*

Sirdaryo iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-dekabr oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **688,4** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **55,7** mln. AQSh dollariga yoki **9,1** % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-dekabr, ming. AQSh dollari)


	2020- yil	2021- yil	O'sish surati, % da	jamiga nisbatan, % da
 Tashqi savdo aylanmasi	612744,8	668422,1	109,1 %	x
Eksport 	179728,3	235264,0	130,9 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	178474,5	231428,3	129,7	98,4
 <i>xizmatlar</i>	1253,8	3835,7	305,9	1,6
Import 	433016,5	433158,1	100,0 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	432785,9	433158,1	100,0 %	100,0
 <i>xizmatlar</i>	230,6	0,0	0,0	0,0
 Saldo	-253288,2	-197894,1	x	x

Ma'lumot uchun: Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **235,2** mln. AQSh dollariga (**30,9** % ga ko'paydi) va import hajmi **433,2** mln. AQSh dollariga (**100,0** ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida - **197,9** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

SIRDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-dekabr, ulushi,% da.)



SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



Sirdaryo viloyati tashqi savdo aylanmasi yanvar-dekabr oyida **668,4** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **55,7** mln. AQSh dollariga ko'paydi.


Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, va Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya va Avstriya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



10 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-dekabr)






Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 10 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (**155,9** mln. AQSh dollari), Qozog'iston (**171,1** mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (**112,0** mln. AQSh dollari), va Afg'oniston (**83,0** mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Sirdaryo jahonning **63** ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA da salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (**23,4** %), Qozog'iston (**25,7** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**16,8** %), Afg'oniston (**12,5** %), Germaniya (**3,8** %), Qirg'iz Respublikasi (**0,8** %) va Turkiya (**3,7** %) qayd etilgan.

SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)











Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	89,4	122,0	155,8
 Eksport	21,0	32,9	43,2
Import	68,4	89,1	112,6
Qozog'iston	110,5	156,7	171,1
 Eksport	39,1	24,1	19,5
Import	71,4	132,6	151,6
Xitoy Xalq Respublikasi	159,6	113,3	112,0
 Eksport	26,1	26,8	48,7
Import	133,5	86,5	63,3

SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)




Davlatlar		2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Afg'oniston	10,7	63,2	83,6
	<i>Eksport</i>	10,7	63,2	83,6
	<i>Import</i>	-	-	-
	Pokiston	3,3	8,4	9,3
	<i>Eksport</i>	3,1	8,4	8,5
	<i>Import</i>	0,2	-	0,8
	Litvaya	4,9	5,3	3,3
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	4,9	5,3	3,3
	Qirg'iz Respublikasi	3,6	7,4	5,1
	<i>Eksport</i>	1,9	5,1	4,0
	<i>Import</i>	1,7	2,3	1,1
	Turkiya	28,0	20,7	24,3
	<i>Eksport</i>	4,8	1,1	10,8
	<i>Import</i>	22,8	19,6	13,5
	Ispaniya	-	0,1	1,6
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	-	0,1	1,6
	Germaniya	27,7	46,1	25,4
	<i>Eksport</i>	-	0,1	-
	<i>Import</i>	27,7	46,0	25,4
	Tojikiston	7,7	14,0	6,0
	<i>Eksport</i>	5,6	4,9	5,6
	<i>Import</i>	2,1	9,1	0,4



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-dekabr 2021- yil)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	668 422,1	109,1
Boyovut	26 852,2	123,7
Guliston	22 623,5	197,4
Mirzaobod	23 177,5	42,5
Oqoltin	10 418,8	63,4
Sardoba	6 069,8	106,8
Sayxunobod	61 787,7	160,6
Sirdaryo	176 056,6	97,3
Xovos	24 275,3	79,8
Guliston sh.	83 241,0	112,2
Shirin sh.	80 272,2	136,1
Yangiyer sh.	150 761,9	139,3

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari

Sirdaryo - 176 056,6

Yangiyer sh. - 150 761,9

Guliston sh. - 83 241,0

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari

Guliston – 22 623,5

Oqoltin – 10 418,8

Sardoba – 6 069,8




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **26,3 %** ulush bilan **176 056,6** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Sardoba tumani **0,9 %** ulush bilan **6 069,8** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **52,8** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi **3,0** % ga ko'paygan.

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-dekabr ming AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021- yilning yanvar-dekabr oyida 2020- yil ulushiga nisbatan **0,3** % ga kamayib va jami TSA dagi ulushi **47,2** % ni tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-dekabr, ming AQSh dollari)




1992- yil 4- yanvarda O‘zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi) ga a‘zo bo‘ldi. Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-dekabr holatiga **353 036,0** ming. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **75 463,2** ming AQSh dollariga yetgan bolsa, import **277 572,8** ming AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**45,0 %**), Qozog‘iston (**49,0 %**), Qirg‘iz Respublikasi (**2,0 %**), Turkmaniston (**3,0 %**) va Tojikiston (**2,0 %**) davlatlari bilan qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-dekabr, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



2020- yil 11- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. YOII bilan Sirdaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi **333 432,2** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **66 895,5** ming AQSh dollari, import hajmi esa **266 536,7** ming AQSh dollariga yetdi.



SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI


(2021- yil yanvar-dekabr)



Joriy yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning eksportyorlari soni **182** tani tashkil etib, ular tomonidan **235 264,0** ming AQSh dollari qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan **30,9** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **100,0** % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**32,4** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**46,4** %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**2,5** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y
Jami eksport	179 728,3	235 264,0	135,1	130,9	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	101 100,9	108 074,9	181,5	115,0	56,3	46,4
Ichimliklar va tamaki	82,2	25,6	0,0	35,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	13 282,8	15467,2	65,2	116,0	7,4	6,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	1,0	11,5	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	640,2	11,2	80,9	0,0	0,4	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	6 302,3	5815,9	140,1	86,0	3,5	2,5
Sanoat tovarlari	37 921,1	75 478,9	120,7	2,1 m.	21,1	32,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	2 597,5	6 411,1	100,0	2,9 m.	1,4	2,8
Turli xil tayyor buyumlar	16 547,4	20 039,5	114,5	141,0	9,2	8,6
Xizmatlar	1253,8	1484,8	64,7	2,4 m.	0,7	0,6





Sirdaryo viloyati eksporti yanvar-dekabr oyida **235 264,0** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **55 535,7** ming AQSh dollariga ko'paydi.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-dekabr)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	27255,4	74,1
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	78512,1	128,2
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	2130,5	85,3
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	79,0	50,6

Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,9	1,4
Tamaki va tamaki mahsulotlari	24,6	144,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	12220,8	104,0
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	160,1	61,1
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	884,3	150,8
Qog'oz massasi va makulatura	1784,6	4,1 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Elektr toki	0,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-dekabr)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va maxsulotlar	4 594,3	88,9
Birlamchi shakilda bo'lmagan plastmassalar	286,9	91,4
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va boyo'qlar	142,4	9,0 m.
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	762,3	96,6

Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	50143,6	2,1 m.
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, muyna	14650,3	133,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan maxsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	8846,0	3,6 m.

Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	291,5	92,6
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	1127,8	118,8 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	4734,7	2,2 m.
Turli hil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	19003,6	122,8
Har hil tayyor buyumlar	855,1	107,3





MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



So'ngi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020- yilning yanvar-dekabrda **39,9** %dan 2021- yilning yanvar-dekabrda **32,1** % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **67,9** % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-dekabr, % da)

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Afg'oniston (eksport umumiy hajmining **35,6** %), Rossiya Federatsiyasi (**18,6** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**20,9** %), Pokiston (**3,6** %), Qozog'iston (**8,4** %), Turkiya (**4,7** %) va boshqa davlatlarning eksportdagi ulushi **8,1** foizni tashkil etmoqda.




**SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI
VA O'SISH SUR'ATLARI** *(yanvar-dekabr, yillar kesimida)*



Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y
Afg'oniston	63 231,5	82 996,2	5,9m.	131,6	1	1
Rossiya Federatsiyasi	32 917,3	43 214,0	156,5	131,3	2	3
Xitoy Xalq Respublikasi	26 800,3	48 663,6	102,7	181,6	3	2
Qozog'iston	24 082,5	19 494,6	61,6	80,9	4	4
Turkiya	1 081,7	10 834,0	22,6	10,0m.	7	5
Pokiston	8 385,5	8 466,6	2,6m.	101,0	5	6
Qirg'iz Respublikasi	5 096,2	4 013,9	2,6m.	78,8m.	6	7

SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-dekabr)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	235 264,0	130,9
Boyovut	13 496,8	100,7
Guliston	19 980,1	2,9 m.
Mirzaobod	14 889,8	108,3
Oqoltin	5 634,8	123,8
Sardoba	2 336,4	81,3
Sayxunobod	20 443,0	124,5
Sirdaryo	57 635,1	139,2
Xovos	13 926,7	106,1
Guliston sh.	25 743,8	120,0
Shirin sh.	3 247,8	95,1
Yangiyer sh.	55 313,5	130,1

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari

Sirdaryo - 57 635,1

Yangiyer sh. - 55 313,5

Guliston sh. – 25 743,8

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari

Oqoltin – 5 634,8

Shirin sh. – 3 247,8

Sardoba – 2 336,4

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo **24,5 %** ulush bilan **57 635,1** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Sardoba **1,1 %** ulush bilan **2 336,4** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Sirdaryodagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **27 255,4** ming AQSh dollari qiymatli **57 510,0** tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan **9509,0** ming AQSh dollarida pasayganni kuzatilib, **25,0** % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **20 317,7** ming AQSh dollariga teng **43 108,9** tonna sabzavot, shuningdek, **6 937,7** ming AQSh dollari qiymatidagi **14 401,1** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2021- yil yanvar-dekabr)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Afg'oniston hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **26,0** % ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-dekabr)

Davlatlar	tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da *
Afg'oniston	4 392,3	3 647,7	14,0
Pokiston	4 909,8	6 637,0	25,0
Rossiya Federatsiyasi	4 623,2	2 359,7	9,0
Qozog'iston	30 798,4	6 634,1	25,0
Xitoy Xalq Respublikasi	2666,3	2313,2	9,0
Qirg'iz Respublikasi	278,3	260,2	1,0

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 25 % ga ko'paydi.)



IMPORT

SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI


(2021- yil yanvar-dekabr)

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi **433 158,1** ming AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **100,0** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**33,6** %), mashina va transport asbob-uskunalari (**27,9** %) hamda mineral yoqilg'li, moylari va shunga o'xshash mahsulotlar (**12,6** %) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-dekabr ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-dekabr import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **142,0** ming AQSh dollariga ko'paydi va **433 158,1** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI *(yanvar-dekabr, yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2020 - y	2021 -y	2020-y	2021 -y	2020 -y	2021 -y
Jami import	433 016,5	433 158,1	105,8	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	105 097,0	145 405,6	181,5	138,4	24,3	33,6
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	15 084,8	13 759,7	65,2	91,2	3,5	3,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	20 034,1	54 809,6	11,5	2,7 m.	4,6	12,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	680,0	10 452,5	80,9	15,3 m.	0,2	2,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	49 616,8	50 366,1	140,1	101,5	11,5	11,6
Sanoat tovarlari	27 862,3	28 856,3	120,7	103,6	6,4	6,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	187 776,2	120 830,7	100,0	64,3	43,4	27,9
Turli hil tayyor buyumlar	26 561,4	8 654,4	114,5	32,6	6,1	2,0
Xizmatlar	230,6	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

SIRDARYO VILOYATI IMPORTI



Sirdaryo viloyati importi yanvar-dekabr oyida **433 158,1** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilga nisbatan **142,0** ming AQSh dollariga ko'paydi.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-dekabr)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	114653,3	121,6
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	528,1	2,4 m.
Har hil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	5345,5	27,7 m.
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	13870,9	2,5 m.
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	5 515,3	80,9
Metall rudalari va metall parchalari	654,5	39,0
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	5 735,3	120,8
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	203,2	23,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	43 996,9	3,2 m.
Ko'mir, koks va briketlar	10 812,7	167,8

Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	10 452,1	15,6 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moylaridan olingan texnik aralashmalar va preparatlar	0,4	3,4



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-dekabr)





XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	3 801,7	198,1
Birlamchi shakldagi plastmassalar	13 526,7	53,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	9 892,0	2,3 m.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	1 057,8	61,3
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	12 247,2	166,9
Noorganik kimyo moddalari	6 219,3	127,0
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	4 141,3	67,2
Metaldan tayyorlangan buyumlar	5 615,4	106,1
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	2 347,2	77,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 913,1	52,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	62 774,2	55,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	20 371,1	84,1
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	2 998,6	58,4
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	24 273,4	74,4
Turli hil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	4746,7	96,0
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1890,4	9,4
Har hil tayyor buyumlar	1155,7	164,7



MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-dekabr, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-dekabr oyi yakuni bo'yicha Sirdaryo viloyati tomonidan **52** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Qozog'iston, Turkiya, Avstriya va Turkmaniston) jami importning **89,3 %** ulushini tashkil qildi, bu **386 625,0** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



VILOYATNING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-dekabr, % da)



SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)




Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y	2020- y	2021- y
Rossiya Federatsiyasi	89 072,1	112 642,0	130,3	126,5	2	2
Qozog'iston	132 607,3	151 612,4	186,3	114,3	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	86 515,9	63 301,6	65,6	73,2	3	3
Avstriya	11 882,4	11 699,0	46,4	98,5	7	6
Turkiya	19 635,6	13 510,3	86,3	68,8	5	5
Germaniya	45 981,9	25 327,9	166,2	55,1	4	4
Turkmaniston	13 188,7	8 531,8	120,2	64,7	6	7

SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2020- yil yanvar-dekabr)



	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	433 158,1	100,0
Boyovut	13 355,4	160,9
Guliston	2 643,4	56,2
Mirzaobod	8 287,7	20,3
Oqoltin	4 784,0	40,3
Sardoba	3 733,4	132,9
Sayxunobod	41 344,7	187,4
Sirdaryo	118 421,5	84,9
Xovos	10 348,6	59,8
Guliston sh.	57 497,2	109,0
Shirin sh.	77 024,4	138,6
Yangiyer sh.	95 448,4	145,3

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari

Sirdaryo - 118 421,5

Yangiyer sh. - 95 448,4

Shirin sh- 77 024,4

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari

Oqoltin – 4 784,0

Sardoba – 3 733,4

Guliston – 2 643,4

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo **27,3 %** ulush bilan **118 421,5** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Guliston tumani **0,6 %** ulush bilan **2643,4** ming AQSh dollarini tashkil etdi.


MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2021- yil yanvar-dekabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport-asbob uskunalari hajmi **120 830,7** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **36,0** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **27,9** % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalari asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar-dekabr)



Mashina va transport uskunalari importi hajmining ko'payishiga energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar (**74,4** %), shuningdek, elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan (**116,9** %) importi ko'payishi bevosita ta'sir qilgan.





SANOAT TOVARLARI IMPORTI

2021- yil yanvar-dekabr oyida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **28 856,3** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,6** foizga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **6,7** % ga yetdi.

SANOAT MAHULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HANKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar-dekabr)




Rossiya Federatsiyasi

17 447,5 ming. AQSh dollari
ulushi – 61,0 %



Xitoy Xalq Respublikasi

4535,1 ming. AQSh dollari
ulushi – 18,0 %



Qozog'iston

2824,3 ming. AQSh dollari
ulushi – 10,0 %



Latviya

973,7 ming. AQSh dollari
ulushi – 4,0 %



Sanoat tovarlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (**12921,6** ming AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**5615,4** ming AQSh dollari), va ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**2 347,2** ming AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (67) 236 86 34